



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik 2022- yil yanvar-iyun




Dastlabki ma'lumotlar


Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi **72,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,1** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-iyunida **2417** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **79,0** foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **750** ta, sanoatda **408** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **344** ta, yashash va ovqatlanishda **163** ta, qurilishda **141** ta, tashish va saqlashda **305** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 99,0



Sanoat 37,5



Qurilish 84,6



Investitsiya 42,6



Savdo 82,7



Xizmatlar 60,0



Eksport 60,3



Import 60,0



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

28549




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2417

2022- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

32,2 %



Sanoat

17,0%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

11,5%



Qurilish

10,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,5 %



Tashish va saqlash

6,9 %



Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,5 %




Axborot va aloqa

1,1 %




Boshqa faoliyat turlari

10,1 %



1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Tuman va shaharlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y.

■ 2022- y.

■ (+;-)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Tuman va shaharlar bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-iyun

■ 2022- y. yanvar-iyun

2022- yil yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buxoro shahri – 23,9 %, G'ijduvon tumani – 10,9 %, Buxoro tumani – 8,5 %, Romitan tumani – 10,1 %, Jondor tumani – 8,3 %, Shofirkon tumani – 5,8 %, Vobkent tumani – 6,1 %, Qorako'l tumani – 5,3% hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda
750 ta

Sanoatda
408 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
344 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
163 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,6 birlikni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-iyul holatiga ko'ra*

2020- y. 8,8


2021- y. 13,5

2022- y. 14,6

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining

soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 35,6 birlik, Buxoro shahri 29,0 birlik, Kogon tumanida 20,2 birlik, Romitan tumanida 17,4 birlik, Buxoro tumanida 13,2 birlik, Jondor tumanida 11,4 birlik, Kogon shahri 19,2 birlik, Shofirkon tumanida 9,1 birlik, Olot tumanida 9,0 birlik, Vobkent tumanida 10,7 birlik, G'ijduvon tumanida 9,6 birlik va Qorako'l tumanida 8,4 birlikni tashkil etgan.



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 35,6 birlik, Buxoro sh. 29,0 birlik, Kogon tumanida 20,2 birlik, Kogon sh. 19,2 birlik, Romitan tumanida 17,4 birlik, Peshku tumanida 13,2 birlik Buxoro tumanida 13,2 birlik, va Jondor tumanida esa ushbu 11,4 birlikni tashkil etdi.


O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich
Qorovulbozor tumani
- 35,6 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Buxoro tumani
- 13,2 birlik.

Past ko'rsatkich
Qorako'l tumani
- 8,4 birlik.


2022- yilning 1- iyul holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 85,4 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 60,3 % ini tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olot tumanida – 100,0 %, Jondor tumanida – 100,0 %, Buxoro tumanida – 99,4 %, Shofirkon tumanida – 95,5%, Kogon tumanida – 86,9%, Romitan tumanida – 81,1 % eng past ko'rsatkich Vobkent tumani – 10,6 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **253** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **60,0** % ini tashkil etdi.




2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Olot tumanida – 100,0%, Shofirkon tumanida – 99,8 %, Vobkent tumanida – 99,4 %, ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida – 2,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati


2022- yilning yanvar-iyunida tuman bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4371,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro sh. (706,0 mlrd. so'm), Shofirkon tumani (679,3 mlrd. so'm), Kogon tumani (616,4 mlrd. so'm), Jondor tumani (412,0 mlrd. so'm) va Buxoro (359,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qorovulbozor tumanida (77,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar- iyun holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Kogon tumani (99,4 %), Buxoro tumani (98,4 %), Shofirkon tumani (93,0%), Olot tumani (91,3 %), Jondor tumani (87,1 %), Vobkent tumani (67,2 %), Peshku (66,5%), Buxoro sh. (54,7%), Kogon sh. (46,8%) tumanlarida tashkil etdi. Qorovulbozor tumani (1,6 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6411,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **82,7 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **105,6%** ga oshgani kuzatildi.

2022- yilning yanvar-iyunida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (**1954,5** mlrd. so'm), G'ijduvon (**1222,9** mlrd. so'm), Qorako'l (**532,1** mlrd. so'm), Buxoro (**484,9** mlrd. so'm), Jondor (**437,5** mlrd. so'm), va Romitan (**412,3** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



■ hajm, mlrd. so'm

● o'sish sur'ati, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3488,1** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,6%** ini tashkil etdi. Oʻsish surʼati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,2 %** ni tashkil qildi.



Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha

kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʼati




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (815,0 mlrd. soʻm), Gʻijduvon (384,2 mlrd. soʻm), Buxoro (295,8 mlrd. soʻm), Romitan (289,3 mlrd. soʻm), Shofirkon (288,9 mlrd. soʻm), Kogon (259,6 mlrd. soʻm) hamda Peshku (259,5 mlrd. soʻm) viloyatlarida qayd etildi.

■ hajm, mlrd. soʻm

○ oʻsish surʼati, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4413,6** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **60,0 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,8 %** ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1099,6 mlrd. soʻm), Gʻijduvon (728,9 mlrd. soʻm), Buxoro (309,7 mlrd. soʻm), Jondor (294,7 mlrd. soʻm), Romitan (279,1 mlrd. soʻm), Peshku (271,4 mlrd. soʻm) va Vobkent (269,5 mlrd. soʻm) viloyatlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2022- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,6 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 75,2% ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-iyun ylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,0 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 118,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,0 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1332** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 568 (42,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 681 (51,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 83 (6,2%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik -7,5% (100 ta), sanoatda - 15,0% (200 ta), qurilishda -10,1% (134 ta), savdoda - 34,4% (459 ta), xizmatlar sohasida - 33,0 % (439 ta) ni tashkil etdi.


2022- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasiga 46,0 % ni, savdoda 45,5 % ni, sanoatda 40,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 70,0 % ni, qurilish 54,5 % ni va sanoatda 53,0 % ni, tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda 54,5 % ni, qurilishda 53,0 % ni, xizmatlar sohasida 51,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 53,0 % ni, sanoat sohasida – 44,7% ni qurilishda 43,3 % ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	47,9	45,1	7,0
Band bo'lganlar soni	35,2	60,5	4,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	44,8	50	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	34,9	60	5,1
Raqobat muhiti*	47,4	47,7	4,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	55,9	39,0	5,1
Band bo'lganlar soni	28,5	67,7	3,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	49,5	46,4	4,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	39,5	56,3	4,2
Raqobat muhiti*	50,2	45,7	4,1


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi
65 223-81-96